

## AN'ANAVIY MUSIQIY MEROS VA UNING TURLARI

FarDU magistranti

Abdullayeva Irodaxon Maxmudovna

## ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada an'anaviy musiqiy meros va uning turlari haqida ma'lumotlar keltirilgan hamda an'anaviy milliy musiqiy merosning yorqin namunalari, o'zbek kompozitorlari va bastakorlari asarlari, xorijiy mamlakatlar kompozitorlari asarlari, xonandalik, bir yoki bir necha cholg'ular va janrlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, meros, an'anaviy xonandalik, mezonlar, kompozitorlar, janr.

## АННОТАЦИЯ

В статьедается информация о традиционном музыкальном наследии и его видах, освещаются яркие примеры традиционного национального музыкального наследия, произведения узбекских композиторов и аранжировщиков, произведения композиторов зарубежных стран, пение, один или несколько инструментов, жанры.

Ключевые слова: музыка, наследие, традиционное пение, критерии, композиторы, жанр.

## ANNOTATION

This article provides information about traditional musical heritage and its types, and highlights vivid examples of traditional national musical heritage, works of Uzbek composers and arrangers, works of composers from foreign countries, singing, one or more instruments and genres.

Keywords: music, heritage, traditional singing, criteria, composers, genre.

## KIRISH

Hozirgi kunda pedagogik fanlar, “Oila mahalla-ta’lim muassasasi” hamkorligi jamoat kengashlari oldida o’sib kelayotgan yosh avlodga xalqimizning madaniyati, san’ati, tarixi, adabiyoti, tili va milliy qadriyatlariga asoslangan, DTS talabiga to’liq javob bera oladigan zamonaviy ta’lim va tarbiya berish – bosh vazifa qilib qo’yilgan. Chunki, jismoniy sog’lom, axloqi pok, muayyan fanlarga oid bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lgan, xalqimizning moddiy va ma’naviy merosiga vorislik qila oladigan, yetuk shaxsning shakllanishi zamonaviy pedagogik omillardan qay darajada foydalanishimizga bog’liqdir.

Inson ongini boyitish, xususan yoshlar manaviy olamini yuksaltirish, madaniy saviyasi va badiiy didini shakllantirishda san’at, ayniqsa musiqa san’ati muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli fransuz yozuvchisi Viktor Gyugo aytganidek, “So’z tugagan joyda musiqa boshlanadi”. Musiqa xilma-xil tovushlar vositasida kuchli badiiy obrazli ta’sir ko’rsatishi bilan inson qalbidagi ayrim so’z bilan tushintirish qiyin bo’lgan chuqur his va tuyg’ularni yorqin ifodalashi mumkin.

Ko’pgina sozanda va xonandalar avlodi faoliyatining ijodiy mahsuli bo’lgan o’zbek xalq musiqa ijodiyoti (folklor) va an’anaviy kasbiy musiqiy meros ko’p asrlik tarixga ega. Uning ko’lami keng, nihoyatda boy va serjilo yuksak badiiy qimmatga ega bo’lgan namunalari mavjud. Ularni to’plash, saqlash, notaga olish, taraqqiyot yo’li hamda nazariy asoslarini o’rganish, tasniflash, o’zlashtirish, asosida uzlucksiz musiqa ta’limi jarayonining ijro amaliyotiga jalb etish borasida respublikamizda ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Haqiqiy musiqa asari haqiqiy ijro orqali tiglovchiga yetib borib, unga zo’r tuyg’uli (emotsional) ta’sir ko’rsatishi, qalbidan joy olib, uni o’ziga maftun qilishi va unga badiiy estetik zavq bag’ishlashi mumkin.

Hozirgi kunda turli axborot va aloqa vositalari orqali katta musiqiy axborot oqimi oqib kelmoqda. Tinglovchilar yoshlari, didlari, ehtiyoj va xohishlaridan qat'iy nazar ko'pincha shu musiqiy oqim ta'sirini sezib turadilar. Keyingi yillarda shu oqim bilan rep janridagi qo'shiqlarga o'xshagan bir ga'ni yoki qo'shiq sarlavhasini qayta-qayta takrorlash tamoyiliga asoslangan, so'zida ham, ohangida ham biror mantiqli ma'no va mazmun kam bo'lgan "Qo'shiq"lar ko'plab paydo bo'lib kelyapti. Bu borada respublikamiz televedinyasida namoyish etilgan "Ohang va ofat" ko'rsatuvida ham bir qancha keskin tanqidiy fikr va mulohazalar aytilgan edi. Afsuski, birqancha har xil yoshdagagi bolalarimiz turli sabablarga ko'ra o'zlarining yoshlariga to'g'ri keladigan haqiqiy musiqa asarlari bilan tizimli asosda tanishib, ularning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlari, hamda kuchli emotsiyonal ta'siridan bebehra qolmoqdalar. Oqibatda ular har xil yengil-yelpi kuy va qo'shiqlarning nojo'ya ta'siriga tushib, musiqiy-estetik didlarining shakllanishiga putur yetishi mumkin.

An'anaviy musiqiy merosimizning birinchi navbatda tur va janriy xususiyatlari (qo'shiq, terma, yalla, lapar, ashula, cholg'u kuy va b.), so'ngra alla, maishiy, mehnat, lirik, mavsumiy, marosim va hazil qo'shiqlari turlariga xosligi aniqlanadi. O'zbek xalq kuy va qo'shiqlari mavqeい hamda hayotda tutgan o'rniga muvofiq ikki guruhni tashkil etadi. Birinchi guruh ma'lum vaqt yoki ma'lum sharoitda ijro etiladigan oilaviy-marosim, mehnat qo'shiqlari, alla va afsunli qo'shiqlar, yig'iyo'qlov qo'shiqlari hamda har xil tantana, tomosha va marosimlarda ijro etiladigan cholg'u kuylarni o'z ichiga oladi. Ikkinci guruh tarkibiga istalgan vaqt, joy va sharoitda ijro etiladigan o'zbek xalq an'anaviy musiqiy folklor janrlari – terma, qo'shiqlar, yalla va ashula, shuningdek, xuddi ularga o'xshash cholg'u kuylar kiradi.

Milliy an'anaviy musiqiy merosimizning nisbatan murakkabroq qatlagini og'zaki an'anadagi kasbiy (professional) musiqa janrlari tashkil etadi. Kasbiy musiqa janrlari tuzilishi, mavqeい, hajmi rivojlanganligi, baland avjlari va boshqa o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa xalq kuy va qo'shiqlari (folklor)dan farq qiladi.

O'zbek xalq musika ijodiyotining folklor kabi namunalarini yaratuvchilari ham, ijrochilar ham, tinglovchilar ham shu marosim ishtirokchilari bo'lib, bunday oddiy qo'shiqlar ijrosi uchun kuchli ovoz, musiqiy qobiliyat va iste'dodning mavjudligi shart emas. Buning uchun qoniqarli musiqiy qobiliyatning o'zi kifoya. Ammo an'anaviy kasbiy musiqiy meros namunalriga xos nola va qochirimlar kabi musiqiy bezaklar ijrosini meyoriga yetkazib ijo etish uchun bu ko'rsatkichlardan tashqari zo'r mahorat va kasbiy tajriba ham zarur.

Mahalliy musiqiy uslublarni tilshunoslikdagi mahalliy "Sheva"lar tushunchalari bilan qiyoslash mumkin. Barcha mavjud "Musiqiy shevalar"ning o'xhash sifatlari o'z navbatida "umumiyl musiqiy uslub" singari yig'ma tushunchani yuzaga keltiradi. Milliy mahalliy musiqiy uslublar o'zlariga xos betakror xususiyatlari bo'yicha asosan to'rtta mahalliy musiqiy uslubga ajratilgan bo'lib, o'zbek musiqashunosligida nisbatan atroflicha o'rganilgan. Ular muayyan xudud nomi bilan ya'ni, Toshkent- Farg'ona, Buxoro-Samarqand, Surxondaryo-Qashqadaryo va Xorazm mahalliy uslublari deb yuritiladi.

Barcha mahalliy uslublarda ko'pgina kuy va qo'shiqlar, musiqiy folklor namunalari bir-biriga o'xshaydi. Shuning bilan birga ularning o'ziga xos takrorlanmaydigan musiqiy janrlari ham mavjud. Masalan, Toshkent-Farg'ona uslubiga xos katta ashula yoki yovvoyi maqom namunalari boshqa xududlarda uchramaydi. Buxoro-Samarqand mahalliy musiqiy uslubiga xos sozandachilik san'ati, "Buxorcha" (ayol sozandalar ijrosi) va "Mavrigi (erkak ijrochilar san'ti), Xorazmda tor yoki dutor, bo'lomon yoki qo'shnay, g'ijjak va doiradan tashkil topgan kichik cholg'uchilar dastasi jo'rligida doston ijo etish, xalfalarning garmon va doirada o'ziga jo'r bo'lib qo'shiq aytib raqsga tushish, doston nomalaridan aytishlari, Surxondaryo-Qashqadaryo mahalliy musiqiy uslubiga xos do'mbirada o'ziga jo'r bo'lib sun'iy yopiq (bo'g'iq) ovoz bilan dostonlar ijo etish san'ati ma'lum mahalliy uslub doirasida shakllangan janrlardir.

Barcha mahalliy musiqiy uslublarga xos ijrochilik an'analarini nazarda tutib, maktabgacha va maktab musiqa amaliyotidan boshlab, uzliksiz musiqa ta'limining barcha bosqichlar uchun musiqiy material (repertuar) tanlashda asosiy e'tiborni o'sha xududning mahalliy musiqiy uslubiga xos shuningdek ta'limning maqsad va vazifalariga mos bo'lgan namunalarga qaratish lozim.

Respublikamiz mustaqillika erishganidan keyin ta'lim tizimi islohotlaridan biri Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va amalda joriy etish bo'ldi. DTS talablarida milliy musiqa namunalari umumbashariy musiqa san'ati bilan bиргаликда o'quvchilarda musiqiy-estetik tarbiyani shakllantirish vositasi bo'lishi qayd etildgan. Shu asosda o'quvchilarda insoniy ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan musiqa madaniyatini shakllantirish umumiyligi musiqa ta'limi va tarbiyasining bosh vazifasi qilib belgilangan. Bu maqsadga erishish uchun musiqa muallimining oldida quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- har bir o'quvchining o'ziga xos (individual) xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni an'anaviy kasbiy musiqiy meros namunalari vositasida musiqiy qobiliyat va qiziqishlarini rivojlantirish;
- dars va sinfdan tashqari to'garak ishlari jarayonida an'anaviy musiqiy meros namunalarini o'rghanish orqali o'quvchilarning bu ustozona san'at haqidagi bilim, ko'nikma va malakalari doirasini kengaytirish;
- turli musiqiy faoliyatlar jarayonida an'anaviy musiqiy merosimizga hos xususiyatlar (nolalar, qochirimlar, va h.k.)ni his etish hamda ijroda usulga rioya qilishga intilishni shakllantirish;
- turli qo'shiqlar va mumtoz musiqa asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni (she'riy matnlari) vositasida o'quvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash;
- darsda mehnat, kasb-hunar, xususan musiqa muallimligi va san'atkorligi kasbiga nisbatan o'quvchilarda ishtiyoq uyg'otish;

O'qituvchi an'anaviy milliy musiqiy merosning yorqin namunalari, o'zbek kompozitorlari va bastakorlari asarlari, xorijiy mamlakatlar kompozitorlari asarlari, xonandalik, bir yoki birnecha cholg'ularda sozandalik. Dirijyorlik, musiqa o'qitish metodikasi, musiqashunoslik, jo'rnavozlik va boshqa har bittasi alohida bir kasb hisoblangan faoliyatlar bo'yicha hech bo'limganda qoniqarli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishiga to'g'ri keladi. Shu bois mohir musiqa muallimi o'z kasbi va bolalarga sidqidildan mehribon, yuksak madaniyatli izlanuvchi va ijodkor, milliy istiqlol mafkurasiga sodiq shaxs bo'lishi talab etiladi. U pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, falsafaga asoslangan mantiq, etika, estetika, she'riyat, adabiyot va boshqa fanlardan xabardor bo'lishi kerak. Sinfdan tashqari musiqa to'garaklari, ma'ruza yoki suhbat konsertlar, taniqli san'atkorlar bilan ijodiy uchrashuvlar, maktabda va maktabdan tashqari o'tkaziladigan turli tadbirlar va festivallarda ishtirok etadigan iste'dodli o'quvchilarni tanlab tayyorlash kabi musiqiy tarbiyaning ommaviy shakllarini amlga oshirishda faol qatnashish ham musiqa muallimining vazifalari ko'lamiga kiradi.

Bunday ko'p qirrali ishlarni amalga oshirish uchun maktabda zamonaviy talablarga javob beradigan darajada jihozlangan maxsus musiqa xonasi, ta'lim va axborot texnologiyalaridan foydalanish uchun zaruriy texnika vositalari, audio va video yozuvlari fonotekasi, yaroqli cholg'u asboblari, ko'rgazmali va tarqatma o'quv vositalari, yetarli miqdordagi darsliklar kabi shart-sharoitlar ham zarur. Afsuski, bunday sharoitlarga ega bo'lgan maktablar soni juda oz.

Mustaqillik yillarda alohida ijrochilik salohiyatiga ega bo'lgan milliy estrada musiqasi va qo'shiqchiligidagi to'xtalib o'tish joizdir.

O'tgan asrning 70-yillariga kelib qo'shiqchiligmizning va musiqa madaniyatimizning yangi yo'nalishi, yangi estrada janri tarkib topdi. Bu esa san'atimizda yangilik deb qabul qilindi. Taniqli kompozitorlar M. Burhonov, I. Akbarov, M. Leviev, A. Berlin, X. Izomov, e. Solihov, G'. Qodirov, A. Muhamedovlar ommaviy estrada yo'nalishida ham muvaffaqiyatli ijod qildilar.

O'zbek estradasining dastlabki qaldirg'ochlari yetishib chiqdi. B.Zokirov, L.Zokirova, K.Jalilova, B.Mavlonov, N.Zokirov, R.SHaripova, Yu.To'raev, S.Rahimov, A.Ioshpe singari estrada xonandalari shular jumlasidandir.

Yuqorida tilga olingan kompozitor va xonandalar o'zbek estradasining maktabini yaratdilar. estrada qo'shiqlari teleradio dasturlari, kino va sahnaviy asarlar, kontsertlar orqali ommalashdi va o'zining muxlislariga ega bo'ldi. Hatto xalqaro sahnalarda ham o'rmini topib oldi.

Mashhur estrada qo'shiqchisi, o'zbek estradasining so'nmas yulduzi Botir Zokirovning jahon sahnalaridagi muvaffaqiyati o'zbek estrada san'atini jahonga tanitdi. Uning o'z ona tili bilan bir qatorda turli tillarda aytgan qo'shiqlari estradamiz jahon sahnasiga chiqib olishida ko'prik bo'lib xizmat qildi.

Istiqlol yillarda estrada ijrochilik san'atimiz yangi bosqichga ko'tarildi. Shu yillarda «O'zbeknavo» gastrol-konsert birlashmasining tashkil etilishi, «O'zbekiston - Vatanim manim» qo'shiqlar bayramining o'tkazilishi, «O'zbekistonda estrada san'atini yanada rivojlantirish to'G'risida»gi Prezident farmonlari bu borada yuksalish yo'lini belgilab berdi.

«Ofarin», «Ona zamin Yulduzları», «Nihol» sovrinlari tahlis etildi. Yangi-yangi ijrochilar kashf etildi. estrada kollektivlari, guruhlari, alohida ijrochi yoshlari xalqaro festivallarda, tanlov va konsertlarda muvaffaqiyatga erisha boshladilar. O'zbek estradasining Farruh Zokirov va «Yalla» vokal – cholg'u ansambl, Mansur Toshmatov, G'ulomjon Yoqubov, Nasiba Abdullayeva singari ustoz ijrochilari ketidan yangi avlod estrada vakillari barakali ijod qilmoqdalar. Yulduz Usmonova, Kozim QaYumov, Kumush Razzoqova, Nuriddin Haydarov, Ravshan Nomozov, Azim Mullaxonov, G'iyos Boytoev, Mavluda Asalxo'jaeva, Yulduz Abdullaeva, Mardon Mavlonov, Sofiya Saftarova, Salohiddin Azizboev, Mohira Asadova, Ozoda Nursaidova Gulbahor Sulaymonova singari xonandalari shular jumlasidandir.

Hozirgi zamonaviy o'zbek estrada san'atining yorqin yulduzi bo'lmish Yulduz Usmonovaning ijodi taxsinga sazovordir. Uning ijrosidagi o'nlab qo'shiqlar xalqimizning, ayniqsa, yoshlarning sevimli qo'shiqlariga aylanib ketdi. Ayniqsa, «Xalqim», «Xalq bo'l, elim», «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!», «Dunyo» singari qo'shiqlari mustaqillik yillarining eng yaxshi qo'shiqlari deb tan olindi. Uning xorijiy davlatlardagi gastrol-kontsert chiqishlari natijasida chet ellarda ham muxlislarining ortib borayotganligi fikrimiz dalilidir.

Hozirda faoliyat ko'rsatayotgan yosh estrada guruhlari va xonandalarining ijodlari ham barakali bo'lmoqda. Rashid Xoliqov, Nilufar Rahmatova, Ilhom Farmonov, Sevara Nazarxon, SHahlo Rustamova, Doston Ubaydullaev, Anvar Sanaev, Abdulaziz Karim, Tohir Sodiqov, Dilfuza Rahimova, Anvar G'aniev, Abdulla Qurbonov, Nodir Lutfullaev singari o'nlab yosh umidli estrada xonandalari ijodi bunga misol bo'la oladi.

Mustaqillik yillarida bolalar musiqiy estrada janri ham yangicha ko'zgu bilan namoyon bo'ldi. Bu sohada Nadim Norxo'jaev, Avaz Mansurov, Dilorom Omonullaeva, Alisher Rasulov singari kompozitorlar faol ijodiy mehnat qilmoqdalar.

«Turkiston farzandimiz», «SoG'lom avlod», «Humo qushim», «Ramazon», «Oq terakmi, ko'k terak», «Istiqlolim», «O'zim aylanay» singari qo'shiqlar misol bo'la oladi.

Bugungi kunda Sarvar Qoziev va «Qars» guruhi, «Toshkent», «Manzur», Muhammadjon Ro'zimuhammedov va «SHofayz», Doniyor Mamedov va «Bayram», Abdulla SHomaG'rupovali va «Nola», Rashid Xoliqov va «SHaxzod», Sevara Nazarxon va «Sideriz», Abdulaziz Karim va «Asr», Tohir Sodiqov va «Bolalar», «Xo'ja», «Toj», «Setora» singari guruhlari hozirgi davr yoshlari estrada musiqasining asosiy bo'G'inini tashkil etadi.

## Xulosa

Bugungi kundagi estradamiz yutuqlari bilan bir qatorda kamchiliklarini aytib o'tish joizdir. Chunki bu haqda juda ko'p fikrlar bildirilmoqda. Televidenieda debatlar uyushtirilmoqda, matbuotda chiqishlar qilinmoqda. Avvalo, «Milliy estrada» atamasining mazmuni va mohiyatini yaxshi tushunmoq darkor. Nima uchun «Milliy estrada» atamasi qo'llanilmoqda? Ba'zi bir yosh estrada qo'shiqchilari - «Estradaning millati bo'lmaydi, jahon estradasiga omuxta bo'lishi kerak», degan fikrni bildirishmoqda. Bu albatta, bir tomondan jahon estradasiga chiqish yo'lida maum nuqtai nazar bo'lishi mumkin, lekin jahon estrada sahnasiga o'zbek milliy estradasi nomi bilan, xalqimizning juda boy musiqiy merosiga suyagan holda qo'shiqlar yaratib ijro etgan holda chiqilsa, maqsadga muvofiq bo'lsa kerak.

Bu borada o'ttiz yildan oshiq davrdan buyon barakali ijod qilib kelayotgan Farruh Zokirov rahbarligidagi xizmat ko'rsatgan «Yalla» ansamblini misol qilish mumkin. Bu ansambl o'zining xalqona ijrosi bilan bugungi kunda ham estafetani qo'llarida mahkam ushlab turibdi, bugungi kunning talabiga javob bermoqda.

Hozirda turk, eron, arab, frantsuz, ingliz, nemis estrada musiqasidan foydalanib, o'zbekcha so'z qo'yib aytileyotgan qo'shiqlar ko'payib bormoqda. Bu albatta, achinarli holdir. Yana bir tomoni, disket musiqasidagi ohanglar usuliga o'lchab, sayoz so'zlardan tashkil topgan, muallifi nomahlum shehrlardan ham foydalanilmoqda.

Bu albatta, qo'shiq saviyasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada yuzlab esda qolmaydigan bir martalik yoki mavsumiy qo'shiqlar ko'payib bormoqda. Yana shuni aytib o'tish lozimki, milliy estrada ruhidagi qo'shiqlar ijrosiga qo'l urishda an'anaviy qo'shiqlarni va xalqimizning sevimli qo'shiqlarini, xalq bastakorligining, mashhur qo'shiqlarini estrada yo'liga solib, buzilgan holda ijro etishlar ham uchramoqda. Agar xalqona ijro uslublariga tayanib, har bir ijroni yaxshi o'zlashtirib, ana shu ijrodan leytmotiv singari foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'lur edi. Ushbu fikrlarni amalga oshirishni estrada xonandalarining o'zlariga havola etamiz.

Bugungi kunda Milliy estrada musiqasini ravnaq topishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lib, uni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bois, har bir ijodkordan samarali ijod qilishni, xalqimizga manzur bo'ladigan qo'shiqlar va kuylar yaratishlikni talab etadi. San'atsevar xalqimiz o'zining haqiqiy ijodkori, fidoyi san'atkorlarini hamisha ardoqlab kelgan. Zero, hozirgi zamон о'zbek estrada san'ati fidoyi, iqtidorli yosh san'atkorlarga boy va xalqimiz ishonchini oqlashdek salohiyatga ega.

Umuman olganda, milliy istiqlol tufayli musiqa madaniyatimizning barcha jabhalari shag'dam qadamlar bilan yuksalish sari intilmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Res'ublikasi 'rezidentining karori. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi to'g'risida. 2010 yil 27 yanvar.
2. Karimov I.. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. T.2008.
3. Karimov I.. Vatan sajdagox kabi mukaddasdir. 3-jild. T.1996 .
- 4.Fayziev O.. Maktabda musiqiy tarbiya. T.1991
- 5.O'zbek folklori ocherklari. 1 том. Т. 1988